



## EVALUATIVE EXPRESSIONS IN THE PERSIAN LANGUAGE AND THEIR TRANSLATION (BASED ON ZOYA PIRZAD'S NOVEL I'LL TURN OFF THE LIGHTS)

**Dinora Esonboyeva**

4th-year student, Persian–English program  
Tashkent State University of Oriental Studies  
School of Iranian and Afghan Studies  
Email: [esanbayevadinara@gmail.com](mailto:esanbayevadinara@gmail.com)

**D. Saidoripova**

Lecturer  
School of Iranian and Afghan Studies  
Tashkent State University of Oriental Studies  
Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Ta'aurof expressions, translation, theory, intercultural communication, speech etiquette.

**Received:** 28.04.25

**Accepted:** 10.05.25

**Published:** 14.05.25

**Abstract:** This article analyzes elements of ta'aurof in the Persian language and their representation in the process of translation into Uzbek. The novel I'll Turn Off the Lights by Zoya Pirzad was chosen as the object of the study, with a comparative analysis of ta'aurof expressions within the text. The research examines communication and greeting styles in both Persian and Uzbek, identifying key challenges in translation and proposing possible solutions. The findings contribute to the theory and practice of translation and help deepen the understanding of intercultural communication.

## FORS TILIDA TA'RIFGA OID BIRLIKALAR VA ULARNING TARJIMADA BERILISHI (ZUYO PIRZODNING "CHIROQLARNI MEN O'CHIRAMAN" ROMANI ASOSIDA)

**Dinora Esonboyeva**

4-kurs, fors-ingliz guruhi talabasi  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi  
Email: [esanbayevadinara@gmail.com](mailto:esanbayevadinara@gmail.com)

**D. Saidoripova**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi o‘qituvchisi  
Toshkent, O‘zbekiston

**MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so‘zlar:** Taorof birliklari, tarjima nazariyasi, madaniyatlararo kommunikatsiya, muomala uslublari.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fors tilida taorofga oid birliklar va ularning o‘zbek tiliga tarjima jarayonida berilishi tahlil qilindi. Tadqiqot obyekti sifatida Zuyo Pirzodning “Chiroqlarni men o‘chiraman” romanini tanlanib, undagi taorof birliklari qiyosiy tahlil qilindi. Fors va o‘zbek tillaridagi muomala va tanishuv uslublari o‘rganilib, tarjimada uchraydigan asosiy muammolar va ularni hal qilish yo‘llari ko‘rib chiqildi. Tadqiqot natijalari tarjima nazariyasi va amaliyotiga hissa qo‘sish bilan birga, madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

## **ОЦЕНОЧНАЯ ЛЕКСИКА В ПЕРСИДСКОМ ЯЗЫКЕ И ЕЁ ПЕРЕДАЧА В ПЕРЕВОДЕ (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА ЗУЙО ПИРЗОД «Я ПОГАШУ ОГНИ»)**

**Динора Эсонбоева**

Студентка 4 курса, группа персидско-английского направления

Ташкентский государственный университет востоковедения

Высшая школа иранистики и афганистики

E-mail: [esanbayevadinara@gmail.com](mailto:esanbayevadinara@gmail.com)

**Д. Сайдорипова**

Преподаватель

Высшая школа иранистики и афганистики

Ташкентского государственного университета востоковедения

Ташкент, Узбекистан

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** элементы таорофа, теория перевода, межкультурная коммуникация, речевой этикет.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы элементы таорофа в персидском языке и их передача при переводе на узбекский язык. Объектом исследования выбран роман Зую Пирзад «Я погашу огни», в котором сравнительно рассмотрены случаи использования таорофа. Изучены особенности речевого этикета и знакомства в персидском и узбекском языках, а также основные трудности, возникающие при переводе, и возможные пути их решения. Результаты

исследования способствуют развитию теории и практики перевода, а также углубляют понимание межкультурной коммуникации.

Kirish. Har bir til o‘ziga xos taorof (tanishuv, o‘zaro muomala) usullariga ega bo‘lib, bu birliklar insonlar o‘rtasidagi muloqotda muhim rol o‘ynaydi. Fors tilida taorofga oid birliklar turli omillarga, jumladan, madaniy va lingvistik xususiyatlarga bog‘liq holda shakllangan bo‘lib, ularni boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida muayyan muammolar yuzaga kelishi mumkin. Chunki har bir til va madaniyat taorof uslublarini o‘ziga xos tarzda ifodalaydi.

Fors tilidagi تعارف (taorof, ya’ni “hurmat va odob bilan muloqot qilish”) tushunchasi insonlar o‘rtasidagi nozik adabiy muloqot va ijtimoiy etiketning ramziy ifodasıdır. Fors madaniyatida taorof – bu nafaqat salomlashish, minnatdorchilik bildirish, taklif qilish va kechirim so‘rashda qo‘llaniladigan so‘z va iboralar majmuasi, balki insonlarning o‘zaro hurmatini, noziklik va samimiylikni ifodalovchi madaniy xususiyatdir .

Fors tilida taorofga oid birliklari bo‘yicha Eron tilshunosligida Keshavarz , Hosseini , Nanbaksh , Beeman , Koutlaki , Sharifian , Sahragard kabi tadqiqotchilar izlanishlar olib borganlar.

O‘zbek tilshunosligida esa Sh.Iskandarova , A.Mo‘minova , H.Hojiyeva kabi tilshunoslар mazkur mavzuga o‘z tadqiqotlari bilan hissa qo‘shganlar.

Taorof madaniyati Eron tarixida hukmdor va xalq o‘rtasidagi munosabatlardan kelib chiqqan. O‘tmishda kuchli qonun-qoidalar bo‘limgani uchun, odamlar hukmdorlarning qarorlariga tobe bo‘lishgan. Odamlarning jon va mol-mulki podshohning irodasiga bog‘liq bo‘lgani sababli, o‘z fikrini ochiq bildirishdan qo‘rqish odat tusiga kirgan. Shu sababli, xalq o‘z fikrlarini yashirishga va bilvosita ifodalar bilan gapirishga odatlangan. Bu odat vaqt o‘tib, Eron jamiyatida chuqur ildiz otgan va odamlarning kundalik muomalasida aks etgan .

Taorofning eng yaxshi va chiroysi shakli mehmondo‘stlikda ko‘rinadi. Eronliklar doimo mehmon uchun eng yaxshi ovqat, eng chiroysi idish-tovoqlar va eng toza kiyimlarni tayyorlashga intilgan. Uylarda mehmon uchun maxsus “Shah-nishin” yoki “Tanabi” deb ataladigan xonalar qurilgan. Bu xonalar uyning eng yorug‘ va qulay joyida joylashgan, devorlari naqshinkor bezaklar bilan bezatilgan va hovuz yonida joylashgan bo‘lib, yoqimli salqinlik berardi .

Taorofning chet ellik sayyoohlar ko‘zidagi qiyofasi haqida qisqacha: Qojarlar davrida Eronni ziyorat qilgan ba’zi sayyoohlar eronliklarning taorofini ikki xil baholashgan. Fransuz sayyohi Druvil shunday degan:

“ایرانیان پشت این ظاهر مؤدب و مهربان، صداقت و راستی ندارند”

ya’ni eronliklarning xushmuomalasi va hurmat bilan gaplashishlarini samimiy emas, balki ikkiyuzlamachilik deb hisoblagan. Lekin Britaniya elchisining rafiqasi Lady Shil esa eronliklarni mehmondo‘st va hurmatli xalq sifatida tasvirlagan: “Eronlik kim bo‘lishidan qat’iy nazar, mehmon

oldida hurmat bilan turib, salomlashishga shoshiladi”. Bu qarama-qarshi fikrlar taarufning murakkab va ko‘p qirraligini aks ettiradi.

Bugungi kunda taorof jamiyatda turlicha baholanadi. Bir tomondan, bu hurmat va odob belgisi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ortiqcha rasmiyat va samimiysizlik sifatida qabul qilinadi. Ayniqsa, yosh avlod ko‘pincha ochiq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri gapirishni afzal ko‘radi. Ba’zan, oddiy taklif yoki savolga ochiq javob berish o‘rniga, odamlar o‘zini noqulay his qilib, rad javobini ham, rozilikni ham ochiq aytolmaydilar. Taorof – eronliklarning qadimiy madaniyati bo‘lib, unda hurmat, mehmondo‘stlik va odob mujassam. Bu odat jamiyatda muhim o‘rin tutadi, lekin uni me’yorida qo‘llash zarur. Ortiqcha rasmiyat samimiylilikni yo‘qotadi, samimiylilikni va odobli muomala esa ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi. Eronliklar shunday deyishadi: “Eng yaxshi yo‘l – o‘rtacha yo‘ldir”).

Fors tilidagi taorofga oid birliklarni yanada mukammalroq olib berish uchun Zuyo Pirzodning “Chiroqlarni men o‘chiraman” asarida kelgan taorofga oid birliklarni tahlilga tortdik.

از آشنايى با جىناب عالى بىيار خوش وقت هستم

Az āšnā-ye bā jenāb-e āli besyār xošvaytam .

‘Siz bilan tanishishdan nihoyatda mammunman’.

Ushbu ibora fors tilidagi rasmiy tanishuv iborasidir. Rasmiy tanishuvlarda, ayniqsa ish yoki rasmiy tadbirda bu iborani aytish orqali, suhbatdoshta bo‘lgan hurmatni va uchrashuvdan kelib chiqqan xursandchilikni nozik tarzda ifodalsh mumkin.

چە خوب كردىد آميدىد!

Če xub kardid āmadid!

‘Kelganingiz juda yaxshi bo‘ldi!’

Ushbu ibora fors tilida kimningdir kelishini ehtirom va maqtov sifatida ifodalashda ishlatiladi. Buni ifodalashni quyidagi shakllari ham mavjud:

[Az āmadanetān besyār xušvaytam]. [چە عالى كە آميدىد] [اىز آمدىتان بىيار خوشوقتم]

خىلى خوشوقتم. مشتاق زىارت جىنابالى و سركار مادرتان بودم. كلارис خىلى از شما تعریف كرده.

Xeyli xušvaytam. Moštāy-e ziyārat-e jenāb-e āli va sarkār-e mādaretān budam, Klāris xeyli az šomā tarif karde .

‘Juda xursand bo‘ldim. Men siz va hurmatli onangizni ziyorat qilishni chin dildan xohlagan edim. Kloris siz haqingizda juda maqtovli gaplar aytgan.’

Bu jumlalar butunlay yuqori ehtirom, samimiylilik va rasmiy munosabatlarni ifodalaydi. Bu yerda nafaqat tanishganidan xursandligi balki bu uchrashuvni intizorlik bilan kutib kelayotgani va boshqa shaxs tomonidan ular haqida maqtovli gaplar eshitganini ham aytib o‘tgan.

بفرمایید تو

Befarmāyid to .

‘Marhamat qilib, ichkariga kiring’.

Ushbu iboradan uyga kirishini taklif qilish maqsadida foydalilanildi. Bu taorofning quyidagi shakllarini ham uchrattdik:

بفرمایید، وارد شوید [befarmāyid vāred šavid] - ‘Marhamat ichkariga kiring’

لطفاً، بیاید [lotfan biyāyid] - ‘Marhamat keling’.

چرا ز خمت کشید؟

Čerā zaxmat keşidid?

‘Nega ovora bo‘ldingiz?’

Bu ibora so‘zma-so‘z ‘Nega o‘zingizni qiyナdingiz?’ deb tarjima qilinadi, lekin bu norozilik emas, balki minnatdorchilik va ehtiromni ifodalovchi taorof gap hisobланади. Asarda shu taorofga o‘xhash lekin mehmon tomonidan aytildigan yana bir taorof birliklarini uchrattdik: خیلی ز خمت دادیم [Xeyli zaxmat dādim] – ‘Judayam sizni ovora qildik’ / شرمنده که مزاحم شدیم [šarmande ke mazāham šodim] – ‘Sizni bezovta qilganimizdan hijolatdamiz’ / ممنون که این همه ز خمت کشیدید [Mamnun ke in hame zahmat keshidid] – ‘Barcha mehnatlaringiz uchun minnatdorman’.

قربان سر و زبانت.

γorbān sar va zabānat .

‘Shirin so‘zingdan aylanay!’

Bu taorof birligi so‘zma-so‘z tarjimada ‘Boshing va tilingga(so‘zingga) qurbon bo‘lay’ deb tarjima qilinadi. Asarda قربان فدت [γorbān-e γadet] – ‘Jonim fido bo'lzin senga!’ kabi taorofdan ham foydalilanigan.

خواهش دارم.

Xāheš dāram .

‘Arzimaydi/Yordam berganimdan xursandman’.

Bu ibora kimdir rahmat aytganda yoki uzr so‘raganda javob qaytarish uchun ishlatalidi. Bu iboraning keng foydalilanidigan turi bu خواهش می‌کنم [xāheš mikonam] – ‘Hech qisi yo‘q / Arzimaydi’ hisoblandi.

با اجازه.

Bā ejāze .

‘Ijozatingiz bilan/Ruxsatingiz bilan’.

Fors tilida o‘rtacha rasmiy va rasmiy muloqotlarda birinchi bo‘lib xayrlashishni boshlovchi suhabatdosh tomonidan aytildi. O‘zbek tilida ham xuddi shu birlikning norasmiy va rasmiy muloqot uchun “Ruxsatingiz bilan boraylik”, “Mayli, bizga endi ruxsat” kabi ekvivalentlari mavjud.

خدا حافظ.

Xodā hāfez .

‘Xayr’.

Xayrlashishda **خدا حافظ** [xodā hāfez]dan tashqari yana bir qancha taorofli birikmalarni ham mavjud:

**خدا نگهدار** [xodā negahdār] – ‘Xudo asrasin!’ / **خدا به همرات** [xodā be hamrāhet] – ‘Alloh hamrohing bo‘lsin’ / **برو به امان خدا** [borou be āmān-e xodā] – ‘Allohnning panohindida borgin’ .

Xulosa. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, taorof fors madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, unda samimiylilik, hurmat va odob-axloq me’yorlari mujassam. Biroq, ularning tarjimada to‘g‘ri aks ettirilishi ba’zan muayyan qiyinchiliklarga duch keladi, chunki har bir til va madaniyat o‘ziga xos nutq etiketi va muloqot uslubiga ega. Ushbu tadqiqot taorof birliklarini tarjima qilishda so‘zma-so‘z yondashuv yetarli emasligini va madaniy kontekstni chuqurroq anglash zarurligini tasdiqlaydi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Beeman W.O. (1986). Language, Status, and Power in Iran. Bloomington: Indiana University Press.
2. Corey Miller, Rachel Strong, Mark Vinson, Claudia M. Brugman. (2014). Ritualized Indirectness in Persian: taarof and related strategies of interpersonal management. UNIVERSITY OF MARYLAND CENTER FOR ADVANCED STUDY OF LANGUAGE.
3. Farzad Sharifian. (2005). The Persian cultural schema of shekasteh-nafsi: A study of compliment responses in Persian and Anglo-Australian speakers. Monash University, Melbourne. John Benjamins Publishing Company.
4. Hojiyeva H.Y. O‘zbek tilida hurmat maydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati.
5. Iskandarova Sh. (1991). Ayollar nutqida undov so‘zlarning qo‘llanishi. Respublika yosh filolog olimlarining an‘anaviy ilmiy konferensiyasi materiallari, 61–63-betlar. Toshkent.
6. Keshavarz M. (1988). Forms of address in post-revolutionary Iranian Persian: A sociolinguistic analysis. Language in Society, 17:565-575.
7. Koutlaki S.A. (2002). Offers and expressions of thanks as face enhancing acts: tae’arof in Persian. Journal of Pragmatics, 34 (12), 1733–1756.
8. Mo‘minova A. (2015). O‘zbek nutq etiketi: “Siz” va “Sen”ning ifodalanishi. library.ziyonet.uz.
9. Nanbakhsh G. (2011). Persian Address Pronouns and Politeness in Interaction. PhD. dissertation, University of Edinburgh.
10. Sahragard R. (2004). A cultural script analysis of a politeness feature in Persian. Proceeding of the 8th Pall Conference in Japan, 399–423.
11. Turdiyeva Hulkar Komilovna (Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, “Sharq tillari” kafedrasi o‘qituvchisi) Nutqiy akt lingvopragmatikasi: fors va o‘zbek tillarida xayrlashuv birliklari. Urganch,2020, 3-bet.

